

## “MILLIY O`ZIGA XOS SO`ZLARNING O`ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI”

**Nematullayeva Gulandon**

Navoiy viloyati Navoiy shahar

18-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7106786>

Annotatsiya: So'nggi yillarda O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy aloqalari yildan-yilgayaxshilanmoqda. Bu o'z navbatida ushbu ikki mamlakat o'rtasidagi lingvo-madaniy munosabatlarni rivojlantirishga zamin yaratadi. Adabiy asarlar to'g'ridan-to'g'ri o'zbek va yapon tillariga tarjima qilinmoqda. Afsuski, tarjima jarayonida bir nechta muammolar haligacha hal qilinmagan. Bunday muammolardan biri realiyani tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari. Realia - bu mamlakatga xos bo'lgan bir xil ma'noga ega so'zlar va iboralar, ular ushbu mamlakat tilidagi narsalar, g'oyalar va hodisalar nomini anglatadi. Haqiqat tushunchasi va undan oldingi tadqiqotlar va uning tasnifi masalalari, shuningdek Natsume Soseki tomonidan "Yurak" da ishlatilgan realiyalar uchun o'zbek va rus tillarida tarjima qilingan versiyalarini o'rganish va tarjimadagi qiyinchiliklar va ularni hal qilish yo'llari ta'kidlangan. Natsume Soseki qalbining mohiyati, N.Aminovanning o'zbekcha tarjimasini va N.I.Konradning ruscha tarjimasini. Natsume Soseki tomonidan "Yurak" misolida yapon tilidan o'zbek tiliga tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari tadqiqotda ilmiy jihatdan o'rganilgan. Chet tilida realiyani tarjima qilishda unga teng keladigan narsa yo'q va realiyaning asl matndagi tarjimasini bilan bog'liq qiyinchiliklar milliy, tarixiy kolorit tufayli yuzaga keladi va masalaning qarori bu transkriptdan foydalanish, ya'ni tarjimasiz so'z va realiyaning izohini bering. Kalit so'zlar: realizatsiya, tarjima, transkript, tarjima versiyalari, ekvivalenti, tarixiy rang.

Аннотация: В последние годы культурные, общественные и политические отношения между Узбекистаном и Японией с каждым годом улучшаются. Это, в свою очередь, создает основу для развития языковых и культурных отношений между этими двумя странами. Литературные произведения переводятся непосредственно на узбекский и японский языки. К сожалению, некоторые проблемы в процессе перевода до сих пор не решены. Одной из таких проблем являются трудности трансляции действительности и пути их преодоления. Реалии - это слова и фразы с одинаковым значением, характерные для страны, которые относятся к названиям вещей, идей и событий на языке этой страны. Освещаются понятие реальности и предшествующие исследования и вопросы ее

классификации, а также изучение узбекского и русского вариантов реалий, использованных в «Сердце» Нацумэ Сосэки, трудности перевода и пути их решения. Суть сердца Нацумэ Сосэки, узбекский перевод Н. Аминовой и русский перевод Н. И. Конрад. В случае «Сердца» Нацумэ Сосэки в исследовании были научно изучены особенности перевода с японского языка на узбекский. Эквивалента в переводе реалий на иностранный язык нет, а трудности с переводом реалий в тексте оригинала возникают из-за национального, исторического колорита, и решение вопроса заключается в использовании транскрипта, т. е. в объяснении слова и реальности без перевода.

Ключевые слова: реализация, перевод, стенограмма, версии перевода, эквивалент, исторический колорит.

Abstract: In recent years, cultural, social and political relations between Uzbekistan and Japan have been improving year by year. This, in turn, creates a basis for the development of linguistic and cultural relations between these two countries. Literary works are being translated directly into Uzbek and Japanese languages. Unfortunately, several problems in the translation process have not yet been resolved. One of these problems is the difficulties in translating reality and ways to overcome them. Realia are words and phrases with the same meaning specific to a country, which refer to the names of things, ideas and events in the language of that country. The concept of reality and previous researches and issues of its classification, as well as the study of Uzbek and Russian versions of the realities used in "Heart" by Natsume Soseki, and difficulties in translation and ways to solve them are highlighted. The essence of Natsume Soseki's heart, Uzbek translation by N. Aminova and Russian translation by N. I. Konrad. In the case of "Heart" by Natsume Soseki, the specific features of the translation from Japanese to Uzbek were scientifically studied in the research. There is no equivalent in translating realia in a foreign language, and difficulties with the translation of realia in the original text arise due to the national, historical color, and the decision of the matter is to use the transcript, that is, give an explanation of the word and realia without translation.

Key words: realization, translation, transcript, translation versions, equivalent, historical color.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so'z va jummalarni tarjimada adekvat talqin qilish asar badiiy uslubini tarjimada saqlashga kirishgan har bir tarjimon, ijodkorning yuzma-yuz keladigan doimiy qochib bo'lmas masalalaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki hozirgi kunga



qadar bu muammoga nazariy tomondan yondashgan birorta ham olim haligacha realiyalarni tarjima qilishning yagona usulini ishlab chiqqani yo'q, chunki tarjima ijodiy jarayon hisoblangani uchun, birgina usul orqali tarjima qilish kabi qarashlarning bo'lishini kutishning o'zi katta hatolik bo'lgan bo'lar edi. Biz ham bu mavzuda o'zimizning ilmiy-tanqidiy mulohaza va xulosalarimizni bayon qilish orqali xos so'zlar tarjimasi borasida Yaponiyaning mashxur adibi bo'lmish Natsume Sosekining "Qalb" romanining o'zbek tilidagi bevosita tarjimasi asosida yo'l qo'yilgan turli tasodifiy to'siqlar yoki kamchiliklarni ma'lum ma'noda bartaraf etish yo'llari hamda qanchalik muvaffaqiyatga erishganligini ko'rib chiqishni maqsad qilib qo'yganmiz. Shuningdek, qiyos uchun "Qalb" romanining 1935-yilda rus sharqshunos olimi N.I.Konrad tomonidan rus tiliga qilingan bevosita tarjima matnidan foydalanishga qaror qilindi.

[tomodachi ha chyuugoku no am shisanka no musuko de kane ni fujiyuu no nai otokodatta.]

Приятель мой был сыном одного из состоятельных людей в Тюгоку и не знал затруднений в деньгах.

Do'stim puldan siqilmagan, u - Chyugokuning o'ziga to'q oilalaridan birining farzandi edi.

Bu o'rinda asar muallifi joy nomini berishda aniqlik kiritmagan. Ya'ni, [chyuugoku] deganda

1)Xitoy Xalq Respublikasi hamda

2)Yaponiyaning Honshu orolining g'arbiy qismidagi joy nomi singari qo'llanilish ma'nolari mavjud. [chyuugoku] so'zining ruscha tarjimasida transkripsiya usuli qo'llash bilan cheklangan bo'lsa, o'zbekcha tarjimada transkripsiya usuli bilan birgalikda matn ostida izohlangan va bu o'rinda tarjimon kontekstdan kelib chiqib, "Yaponiyadagi tumanlaridan birining nomi" ko'rinishida izoh qoldirgan. Bu esa, o'zbek tarjimonining yapon tili yaxshi egallagan ekanligidan va yana sinchkov tarjimonligini ko'rsatib bera olgan. Yana bir misolda shunday talqin uchraydi: Bilamizki, tarjima jarayonida muallif va tarjimon orasida doim kurash, raqobat tinimsiz ko'rinishda davom etib boradi. Ya'ni, tarjimon o'z faoliyatini olib borayotganida muallifni matnini boyitishga yoki qisqartishga urinishlar bo'ladi. Chunki tarjima qilingan asarning barcha ma'suliyati tarjimon qo'lga o'tadi. Asliyatni qanchalik adekvat tarzda yetkazib berish tarjimon mahoratiga bog'liq bo'lib qoladi. O'zbekcha tarjima matnida bir qator joylarda ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lib, bu esa kitobxonga bir qadar tushunmovchiliklarga olib keladi. Quyidagi misollarda shunday kamchiliklarni ko'rib chiqamiz:

[kuruma de ittemo niyu sen ha torareta.] Рикша до тех мест брал двадцать сэн. Elektropoezd da borsam 20ming yena to'lashimga to'g'ri kelardi.

Ushbu romandan olingan parchadagi realiyalar tarjimasiga nazar solar ekanmiz, Natsume Soseki aslyatda Ж [kuruma] so'zini qo'llagan bo'lib, bu hozirda avtomobil ma'nosini anglatsada, asar voqealari davri bo'lmish "Meyji" vaqtida "odam kuchi bilan harakatlanadigan ikki g'ildirakli arava yoki riksha" tushunilgan<sup>2</sup>. Shundan kelib chiqib, o'zbekcha tarjimada "elektropoezd" so'zini qo'llash noo'rin deb hisoblaymiz. Shuningdek, pul birligiga doir realiyani tarjima qilishda rus tilida transliteratsiya usuli bilan matn ostida "сэн - около 1 коп." ko'rinishida izohlagan, ammo bu o'rinda ham o'zbek tarjimoni "20 ming yena<sup>3</sup>" so'zini qo'llab katta xatolikga qo'l urgan. Qiymat holati aslyatdagidan keskin tarzda farq qilishini ko'rishingiz mumkin bo'ladi. [okusan no chichioya ha tashika tottori ka dokokano dede arunoni, okaasan no hou ha mada edo to itte jibun no ichigaya de umareta onna nanode, okusan ha joudan hanbun de sou itta no dearu.]

Отец её был откуда-то из Тоттори, мать же родилась в Итигая, ещё во времена Эдо, так что в её шутке была отчасти и правда. Учитель же был из совершенно противоположной стороны: он был из Ниигата. [Сердце с.26] Uning otasi tatar, onasi esa Edo davridagi ichigayalıklardan, shuning uchun uning hazilida jon bor edi. Ustoz esa mutlaqo qarama-qarshi tomon - Nigatadan edi. [Qalb 28-b.] Bu holatda esa, ruscha tarjimasida realiyalarning to'laqonli tarjima desak bo'ladi, ya'ni romandan olingan parchada 4 ta realiya qo'llangan bo'lib, barchasi mazmunga ta'sir qiluvchi so'zlar bo'lgani uchun barcha realiyalar transkripsiya yo'li tot) bilan tarjima qilgan. Lekin o'zbek tilidagi tarjimada [tottori] so'zini milliyashtirib, realiyani realiya usulidan foydalanib "tatar" deb ag'dargan. Bunday holatda kitobxon asar o'qish davomida noto'g'ri tushunchalarga kelib qolishiga olib keladi. Maqolamizning so'nggida quyidagilarni aytib o'tishni joiz bildik. Realiyalar tarjimasida quyidagi holatlar ko'zga tashlandi:

a) allaqachon internatsionallashgan realiyalar. Tarjimonlar ularni o'z xolicha tarjimasiz qoldirishi mumkin.

b) faqat ma'lum bir regionga, ma'lum bir millatga xos bo'lgan realiyalar. Ular shu millatga xos bo'lgan tushunchalarnigina ifodalab keladiki, agar tarjimon bunday o'ziga xoslikni tushunmay, uni boshqa ma'no ifodalovchi so'z bilan o'girib qo'ysa, asarning milliy koloritiga, so'z ifodalagan ma'noning o'ziga xosligiga putur yetkazgan bo'ladi. Bunday hollarda realiyalar tarjimada xorijiy tilda

berilib matn ostida iqtibosda izohlanadi yoki ona tilida qabul qilingan shaklda keltirilib matn ichida yoki matn ostida izoh beriladi.

v) ayrim tarjimonlar realiyalarni matn ichida boricha qoldirib, jumla konteksti ichida uning izohini keltirishar ekan.

Albatta tarjima asarini uch tilda talqin qilish, yo'l qo'yilgan yutuq va kamchiliklarni izlash o'ziga yarasha mushkulliklarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramasdan asliyat matnining naqadar ma'naviy boyligi, ayniqsa shu xalqning milliy ruhini o'zida singdirgan realiyalarning keng ko'lamda berilishi, shuningdek, har ikkala bevosita qilingan tarjima matnlari ham tahsinga sazovor deb hisoblaymiz. Xalq tilidagi kitobxonlarga yetarlicha tushunishga oson va sodda ko'rinishga olib kelishgan, shu bilan birga o'zga millat madaniyatini tanishtirish maqsadida transkripsiya usulidan foydalanib, izohlarni qoldirishga harakat qilishgan. Shularni inobatga olgan holda ushbu magistrlik ishida biz birinchi bora yapon tilidan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilingan romanda qo'llanilgan realiyarni tarjima qilish jarayonidagi murakkabliklar va ularni o'zbekchaga o'girish masalalarini qidirdik hamda kerakli xulosalarga keldik. Bu roman hali yana tarjima muammolarini yechishda muhim obyekt hisoblanib, kelajakdagi ishlarda bevosita tarjima jarayonida matnni qayta yaratish mavzusida ishimizni davom ettirishni maqsad qilib qo'ydik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ammova N. "1B" asari bevosita tarjimasi. "a^п adabiyoti" tay^Ш soni. 2013-yil. 139-b.[Qalb]
2. Досбаева Н.Т. Бевосита таржимада бадий услубни кдйта тиклаш. Филол. фан. номз.дисс. автореф. - Т.: 2011. 124-б.
3. Файзулласва Р.К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т.: 1972. - 152 с.
4. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. М, 1973. с.173.
5. Комиссаров В.Н. Лингвистика перевода. - ИМО, 1980. - 167 с.
6. Конрад Н.И. «Сердце» русской перевод. - Ленинград., 1935. 125 с. [Сердце]